

NAVOIY DAHOSINING YUZAGA KELISH ASOSLARI

J.K.Matnazarov

Ma'mun universiteti o'qituvchisidotsent v.b., PhD

S.M.Otaxonova

Ma'mun universiteti talabasi

Navoiy davrlar odami, insonlar odatda bir davrga mansub bo'ladilar, xalos. Faqat buyuk ijodkorlarga barchaga davrdoshlik baxtiga musharraf bo'lishi mumkin. Shu ma'noda Alisher Navoiy bizning zamondoshimiz degan fikrda mubolag'a yo'q.

Mir Alisher hayotlik davrida ko'tarib chiqqan muammolari hozir ham muammoligicha qolmoqda, bundan keyin ham bu muammolar ko'tarilaversa kerak. Negaki, odil podsho orzusi, odil jamiyat tushunchasi, komil shaxs haqidagi baland o'ylar barcha davrlar uchun, barcha zamonlar uchun juda muhim va dolzarb masala bo'lib qolaveradi. Chunki uning asarlaridagi bosh obrazlarning psixologik jihatlari bugungi kun shaxslari ruhiyati uchun katta ahamiyatga egaligini ham unutmashimiz kerak. Uning g'azallaridagi o'zini anglash, tushinish haqidagi o'rinlarga to'xtaladigan bo'lsak, bu bugungi kunda psixologlar tomonidan zamonaviy tilda "O'z menini topish" deb yuritiladi. Shuning uchun ham Navoiy kabi daholar barcha zamonlarning, xalqlarning, millatlarning murabbiyi, ustoz, tarbiyachisi o'laroq ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Ijodkor baland did, yuqori saviya egasi ekanini "Meni men istagan kishining suhbatin ko'nglim pisand etmas..." g'azali ham ko'rsatib turibdi. Umuman olganda, Navoiy asarlarini psixologik tahlil qilish mutaxassislarning galdagi vazifasidir.

Endi asosiy mavzuga o'tsak, Navoiy tap-taqir, yaydoq, quruq yerda paydo bo'lgan daho emas. Navoiygacha insoniyat juda ko'p tayyorgarlikdan o'tgan, Navoiy tug'ilishi uchun zamin oldindan tayyorlangan. Fikrimizga mana yana bir misol, alloma 844 yil(hijriy) ramazon oyining 17-sanasida, tovuq yilida tavallud topgan. Bu sananing ahamiyati shundaki:

1. Ayrim ulamolarning aytishicha Qadr kechasi ushbu kunga to'g'ri keladi.
2. Ushbu kunda "Qur'on" nozil bo'la boshlagan.
3. Yana ushbu kunda Shohimardon (hazrati Ali) qatl qilingan (shahid bo'lgan).
4. Buroq (Me'roj) kechasi sodir bo'lgan.
5. Shu sanada Navoiy tug'ilgan.

Shunday ekan, Navoiyning tavalludi tasodif emas ekan-da degan xulosaga kelish mumkin. Bundan tashqari bizda Navoiyni cheklab ko'rsatishga urinish mavjud. Turkman Navoiyni turkman deydi, qozoq qozoqligini da'vo qiladi, biz o'zbek deymiz. Yassaviy maqbarasi peshtoqiga qozoqlar "Buyuk qozoq oqini" deb yozib qo'yishgan ekan, "Odam ato turkman o'lyon" jumlaning turkmanlarning "Nurnoma" kitobidan o'qish mumkin. Bular aslida yaxlid bir butun tanani parchalash kabi noto'g'ri ish. Axir qadim-qadimdan bu davlatlar bir xalq, bir millat bo'lib kelishgan-ku. Shunday ekan, ochiq aytish kerakki, Navoiy butun turkiy xalqlarning buyuk shoiri va u yashagan

hududda turklar bilan birga forslar, arablar, yahudiylar, yunonlar ham birga yashaganligi haqida tarixiy manbalarda ma'lumotlar bor. Navoiy ular bilan ham do'stona munosabatda bo'lgan, kezi kelganda ularning ko'p narsalarini ham o'rgangan.

Aytish mumkinki, Navoiy siz-u bizdan ko'ra falakiyot ilmida bilimdonroqdir. Garchi biz ancha fanlar taraqqiyot etgan davrda yashayotgan bo'lsak ham. Ya'ni bu paytda Navoiy dunyo bilimlarini boshqa millat vakillaridan ham o'zlashtirgan.

Ijtimoiy sabablarga ko'ra, temuriylar davrida erishilgan ilmiy yutuqlar, to'plangan boy tajriba ham Navoiy dahosini yuzaga keltirgan.

Navoiy davridagi ma'lumotlarning ochiqligi dunyodan ma'lumot o'zlashtirish bizning yaqin tariximizdagidan ko'ra osonroq va qulayroq bo'lgan. To'g'ri, oddiy odamlarga nisbatan Navoiyda imkon katta bo'lgan, biroq u davrda dunyoning markazlaridan biri Hirot bo'lganligini ham unutmashimiz kerak.

Navoiyning nasabi – bu haqda tarix kitoblarda ma'lumot kam. Navoiyning bobolari doimiy temuriylar hizmatida bo'lgan va ular hozirgi Qarshi shahridan bo'lishi ehtimoli katta. Har holda a'lo xulq kishilari bo'lishgani aniq.

Shu bilan birga Navoiy haqidagi yanglish fikrlarni ham aytib o'tish joizdir:

1. Navoiy Lutfiyning oldiga bormagan. Ya'ni barchaga mashhur "Lutfiyning lutfiga sazovor" voqeasi bor. Bunda yosh Navoiy Lutfiyning oldiga borgani aytiladi. Tarixiy manbalar buning aksini ko'rsatmoqda, aksincha Lufviy ancha taniqli bo'lib qolgan Navoiyning oldiga kelib, undan she'r o'qishni so'raydi. Bundan ko'rinadiki, Lutfiy va Navoiy bu o'rinda hamkasb sifatida namoyon bo'ladi.

2. G'iyosiddin Kichkinaning jussasi ta'riflardagidek kichkina bo'lmagan. Temuriylar saroyida ikkita G'iyosiddin bo'lib, bittasi shahzoda bo'lganligi sababidan Navoiyning otasi farqlash uchun "Kichkina" deb atalgan.

3. Guli hayotda yashamagan. U keying davr adabiyotining to'qima obrazi.

4. Vazir Majididdin Alisher Navoiy bilan dushman bo'lmagan. Bu xato qarash "Navoiy" dramasi va videofilimi natijasida shakllanigan qarash. Tarixiy ma'lumotlar buning aksini ko'rsatadi.

Navoiy dahosi shakllanishida o'zidan oldin va zamon daholarining ijodining roli ham katta bo'lgan. U ellik ming bayt she'rni o'tmishda o'tgan ustozlaridan, ellik ming bayt zamondoshlaridan she'rlar yod olgan buyuk allomadir!

ADABIYOTLAR:

1. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq: tarixiy asar /Xondamir. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 232 b.

2. Otajonov M. Psixoanaliz asoslari. – T.: O'zbekiston, 2004. – 144 b.

3. <https://tafakkur.net/gazallar/alisher-navoiy?s=kop-oqilgan>.

4. <https://ziyouz.uz/videoteka/uygun-izzat-sulton-alisher-navoiy-spektakl/>.